

**DAVLAT CHEGARASI ORQALI O'TKAZISH  
PUNKTLARIDA O'TAYOTGAN SHAXSLARNI IDENTIFIKATSIYA  
O'TKAZISHNING ASOSLARI VA O'ZIGA XOSLIGI**

**Xikmatov R.P.**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi  
Chegara qo'shnulari taktikasi va xizmati kafedrasi boshlig'i

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada shaxslarni yuz kiyofasini identifikasiya o'tkazish tartibiga oid asosiy qoidalar bayon qilingan.

Maqola, shuningdek, Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida shaxsini identifikatsiyalashni olib borish tartibining zarur hajmda o'rganish va o'zlashtirish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** identifikasiya, o'tkazish punkt, passport, xujjat, kriminalistika, chegara nazorati, og'zaki portret, tashqi qiyofa.

**ABSTRACT**

This article describes the main rules of identifying individuals with order. Also, this article gives opportunity to learn and to familearise identifying individuals through The State Border posts.

**Keywords:** identification, post, passport, document, criminalistics, border control, appearance, description.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье изложены основные правила по порядку идентификации личности. Также данная статья позволяет в необходимом объеме ознакомиться и научиться порядком проведения идентификации лиц, следующих через Государственную границу.

**Ключевые слова:** идентификация, пункт пропуска, паспорт, документ, криминалистика, пограничный контроль, словесный портрет, внешний вид.

Bugungi kunda qalbaki hujjatlarga ega yo'lovchilar asosan fotosuratlarni qalbakilashtirishadi, odadta hujjatdagi fotosuratga o'xshash belgilarga ega bo'lishadi, nazoratchilar pasportni tekshirishda bunga sinchkovlik bilan e'tibor berishlari va tez qisqa vaqtda shaxsni identifikasiya o'tkazishlari lozim.

Davlat chegarasi orqali o‘tayotgan shaxsning hujjatlarini tekshirishda shaxsni identifikasiya o‘tkazish, yani shaxs taqdim etayotgan hujjatiga qarab va bu hujjatdagi fotosuratga mos kelishini tekshirishni o‘z ichiga oladi.

Hujjatdagi fotosuratni uni taqdim etgan shaxsga tegishli ekanligini solishtirish va fotosuratda xuddi shu shaxs ekanligiga ishonch xosil qilish – bu nazoratchilarning hujjatlarni tekshirishda asosiy vazifasi. Nazoratchi malakali darajada hujjatdagi fotosuratni uni taqdim etgan shaxs bilan solishtirilgandan so‘ng, tezkorlik bilan nazoratga berilgan hujjatlarni haqiqiyligini va kimga tegishli ekanligini aniqlashga majbur.

Dastlabki identifikatsiyani o‘tkazish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, hujjatlarni tekshirishda pasportdagi fotosurat va viza solishtiriladi. Shaxsni identifikatsiya o‘tkazish jarayonida shahslarni qisqacha savol javob qilish lozim. Bunda barcha ishni xushmuomalalik bilan va atrofdagilarning, hujjat egasining e’tiborini jalg qilmasdan bajarish lozim. Bu ishni professional darajada bajarish har kimning qo‘lidan kelmaydi. Bunday mutaxassislarni tayyorlash uchun maxsus va ilmiy adabiyotlar zarur bo‘ladi.

Chegara nazorati bo‘linmasi nazoratchisining asosiy vazifalaridan biri – bu hujjatdagi fotosuratni uni taqdim etgan shaxs bilan solishtirish hisoblanadi. Nazoratchi ishining o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, solishtirish uchun qisqa vaqt 15-20 soniya zarur bo‘ladi. Hujjatdagi fotosuratni yo‘lovchi bilan solishtirish jarayoniga jiddiy yondashishni talab qilinadi. Bunday solishtirish jarayonining assosi “Og‘zaki portret” hisoblanadi.

Og‘zaki portret bir-biriga solishtirish maqsadida odamning tashqi qiyofasini tizimli tarzda tavsiflashdir. Kriminalistikada “og‘zaki portretni” tuzish uchun qator talablar ishlab chiqilgan.

Tashqi qiyofaning umumiy belgilariga ko‘ra shaxsni birinchi bor solishtirish alohida qiyinchilik tug‘dirmaydi. Mazkur bosqichda yo‘lovchi va hujjatdagi fotosuratda tasvirlangan shaxsning aynan bir xilligi aniqlanmasa-da, bu belgilarda farqlarning bo‘lishi suratda yo‘lovchi bilan bir xil bo‘lmagan shaxs tasvirlanganligi haqida xulosa chiqarish uchun asos bo‘ladi.

Tashqi qiyofaning umumiy belgilar solishtirilayotgan shaxsga mos kelganda, xususiy belgilarga ko‘ra tadqiq qilish davom ettiriladi.

O‘tkazish punktlarida hujjatlarni tekshirish vaqtida fotosurat bo‘yicha shaxsini identifikatsiya o‘tkazish ma’lum qiyinchilik tug‘dirishiga quyidagi qator holatlar ta’sir qiladi: tekshirishga sarflanadigan vaqtning cheklanganligi; hujjatni taqdim etuvchi bilan uning fotosurati orasida yoshdagи tafovutlar; soch turmagining o‘zgorganligi va kosmetika vositalaridan foydalanilganligi; fotosurat sifatining har doim qoniqarli

emasligi va hujjat taqdim etuvchining faqat to‘g‘ridan olingan (anfas) tasvirining mavjudligi.

Ammo shu turdagи qiyinchiliklar va cheklovlarga qaramay, agar ma’lum tizimga amal qilinsa, fotosuratga ko‘ra shaxsini identifikatsiya o‘tkazish yetarli darajada tez va aniq bajarilishi mumkin. Shu maqsadda identifikatsiya o‘tkazishning quyidagi usullaridan foydalilanildi:

1. Yuzning alohida qismlariga ko‘ra ko‘z bilan portret tuzmasdan va asosiy belgilarini taqqoslamasdan turib, fotosuratda aks etgan shaxsni hujjat taqdim etgan shaxs bilan ko‘rish orqali solishtirish. Bu usul oddiy va qulay ko‘rinsa ham, aslida kamdan-kam muvaffaqiyatli natija beradi, chunki nazoratchi ham hujjat taqdim etuvchining yuzini ko‘rish orqali aniq eslab qolish qobiliyatiga ega emas.

2. Ma’lum tajribaga ega bo‘lgan holatda, ancha ishonchli, tez va aniq bo‘lgan uslub yuzning alohida qismlari asosida shaxsning so‘z portretini hosil qilish va shu asosda hujjatni taqdim etgan shaxs yuzining asosiy belgilari bilan solishtirishdir. Bu uslubning mohiyati shundan iboratki, hujjat taqdim etuvchining yuzi bilan foto tasvirning har bir tarkibiy qismi ikki ko‘rsatkichga ko‘ra solishtiriladi: shakl va nisbiy o‘lcham. Yuzning asosiy belgilariga alohida belgilari yig‘indisidan butun fotosuratning umumiyligi tavsifi tuziladi.

Shuni e’tiborga olish zarurki, shaxsiyatni bevosita qabul qilishga subyektiv va obyektiv omillar ta’sir ko‘rsatadi. Subyektiv omillar ish tajribasini to‘plash, ko‘z orqali baho bera olish darajasi.

Obyektiv omillar ancha muhim hisoblanadi: hujjatni taqdim etgan shaxs xarakteri va unga tushayotgan yorug‘lik darajasi; nazoratchi va kuzatilayotgan shaxs orasidagi masofaning o‘lchami, shuningdek kuzatuv vaqtining uzunligi. Obyektning yuziga soya va nur tushmayotgan, nur nazoratchining ko‘ziga yo‘naltirilmagan, nazoratchi hujjat taqdim etuvchini bir tekislikda kuzatgan holatlar tekshirish uchun yorug‘lik bilan bog‘liq qulay sharoit hisoblanadi. Nazoratchining kuzatilayotgan shaxsga nisbatan baland yoki past joylashuvida rakurs bilan bog‘liq o‘zgarish sodir bo‘ladi va bu identifikatsiya o‘tkazishga halaqit beradi.

Amaliyot ko‘rsatishicha, odamning yuz belgilarini idrok qilishda ancha foydali va xolis mezon 0,8–1,2 metr masofadan ko‘rish orqali o‘rganish hisoblanadi. Kattaroq va kichikroq masofa idrok qilishga o‘zgartirishlar kiritadi.

Tibbiy-biologik kuzatuv ko‘rsatishicha, obyektni kuzatishning ko‘z xotirasi 1,5–2 soat tinimsiz ishlanganda ancha samarali hisoblanadi. Shu sababli hujjatlarni tekshirishning tinimsiz oqimi sharoitida nazoratchilar uchun 1,5 – 2 soat ish vaqtidan so‘ng qisqa muddatli tanaffus berilishi maqsadga muvofiqdir.

Shaxsni identifikatsiya o‘tkazishda asosiy qoidalar:

dastlab taqdim etuvchining yuzi, so‘ng uning fotosurati, oxirgi navbatda vizadagi fotosurati o‘rganiladi;

Hujjat taqdim etuvchining yuzi nazoratchining ko‘zi bilan bir xil balandlikda bo‘lishi kerak (biroz past bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi). Hujjat taqdim etuvchi shaxs kuperening yuqori qavatida bo‘lganda yoki yotgan holatida shaxsini identifikatsiyalashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Shaxsini identifikatsiya o‘tkazishni qiyinlashtiruvchi asosiy omillar:

vaqtning cheklanganligi;

hujjat taqdim etuvchi tashqi qiyofasining o‘zgarganligi:

kosmetika vositalari qo‘llanilganligi bilan bog‘liq;

grim qilish orqali atayin o‘zgartish;

shaxs mimikasi bilan bog‘liq;

fotosuratga tushishda boshqacha ko‘ringanlik bilan bog‘liq;

yuz proporsiyasi va tuzilishining yosh bilan bog‘liq o‘zgarishlari;

kasalliklar yoki organizmning fizik holati bilan bog‘liq;

jarohat yoki operatsiyalar ta’sirida;

bosh kiyimni kiyish usuliga bog‘liq;

mo‘ylov, soqol, ko‘zoynak va shu kabilarning mavjudligi.

O‘tkazish punktlarida hujjatlarni tekshirish muddatining qisqaligiga bog‘liq holda, hujjat taqdim etuvchini fotosuratda tasvirlangan shaxs bilan solishtirish to‘rt bosqichda bajariladi:

1. Hujjat taqdim etgan shaxs yuzidagi xarakterli jihatlarni ajratib olish.

2. Hujjatdagi fotosuratda tasvirlangan shaxsni yuzidagi xarakterli jihatlarni ajratib olish.

3. Ajratilgan xarakterli jihatlarni solishtirish.

4. Xulosa chiqarish (solishtirish natijalari).

Hujjatni taqdim etuvchini hujjatdagi fotosurat bilan solishtirishning oxirgi bosqichida tashqi qiyofaning xususiy belgilari: qiyofaning alohida qismlari shakli, o‘lchami, joylashuvi, ifodalilik darajasi va ayrim boshqa xarakteristikalar tahlil qilinadi. Qator hollarda u yoki bu qismning tasnifi asosida uni oddiy geometrik figura bilan solishtirish yotadi. Tashqi qiyofaning o‘ziga xosliklari fotosurat asosida shaxsini identifikatsiyalashda ishlatiladi.

Yuzning o‘ziga xosliklari – tashqi qiyofaning fotosurat asosida shaxsini identifikatsiya o‘tkazishda ishlatiladigan xarakterli jihatni hisoblanadi. Yuzning o‘ziga xosliklari deyilganda. Asosan, yuzning alohida qismlari va ularning elementlarining shakli, joylashuvi, o‘lchami tushuniladi.

Inson tashqi qiyofasi elementlarini shartli ravishda umumiy va shaxsiy belgilarga ajratish mumkin. Umumiy – ancha yirik, ko‘zga ko‘rinadigan. Shaxsiy – bular detallar

bo‘lib, umumiy elementlarning tarkibiy qismi. Inson tashqi qiyofasi elementlarini umumiy va shaxsiy belgilarga ajratish insonning qiyofasini tasavvur qilish imkonini beradi. U ko‘pchilik orasidan alohida shaxsni ajratib olinishiga imkon yaratishi bilan inson tashqi qiyofasini boshqalarga to‘g‘ri solishtirib ko‘rilishini osonlashtiradi. Tashqi qiyofa elementlari o‘z tabiatini bo‘yicha bir xil emas. Ular orasidan quyidagi larni ajratish mumkin:

Tashqi qiyofaning doimiy elementlari (xollar, tug‘ma dog‘lar va boshqalar) inson bilan tug‘iladi va u bilan ulg‘ayib, to umrining oxirigacha birga qoladi (agar ular jarrohlik yo‘li bilan olib tashlanmasa yoki jarohatlanish natijasida yo‘q bo‘lib ketmasa).

Vaqtinchalik elementlar paydo bo‘lishi va yo‘q bo‘lib ketishi mumkin (tishlar, badan tuki, soqol-mo‘ylovlar, pigment dog‘lar va boshqalar).

Zaruriy elementlar alohida guruhdagi insonlarga xosdir (masalan, erkaklar yuzidagi tuki qoplama). Tasodifiy elementlarning aniq bir insonda bo‘lishi zarur emas (tanadagi tug‘ma dog‘, qulqoq chanog‘idagi do‘ng joy va boshqalar).

Tabiiy elementlar inson tug‘ilishi bilan yoki yosh o‘tgan sayin paydo bo‘ladi, masalan, ajinlar. Sun‘iy elementlar inson qiyofasini ongli yoki beixtiyor ravishda o‘zgartirish natijasida paydo bo‘ladi (kosmetik ta’sir, jarrohlik aralashuvi, jarohatlar va boshqalar). Patologik elementlar – bu kasallik tufayli normal tashqi qiyofa elementlarining buzilishidir. Ular tug‘ma yoki keyinchalik paydo bo‘lishi mumkin.

Tabiiy o‘zgarishlar. Inson yuzidagi tabiiy o‘zgarishlar inson organizmi rivojlanishining norma jarayonlariga bog‘liq bo‘ladi. Odatda bu jarayonlar uch davrga bo‘linadi: 1-davr – tug‘ilgandan to yetti yoshgacha, 2-davr yetti yoshdan yigirma yoshgacha va 3-davr yigirma yoshdan yuqori.

Keltirilgan materiallardan kelib chiqib, tashqi qiyofaning umumiy va shaxsiy belgilarini, ularning toifasi, solishtirish qoidalarini yaxshi bilish va ularni doimiy mashq qilish, hujjatlarni muvaffaqiyatli tekshirishga imkon beradi, shaxslar tomonidan qalbaki hujjatlar bilan chegaradan o‘tishlariga yo‘l qo‘yilmaydi, deb xulosa qilish mumkin.

Chegaradan o‘tayotgan shaxslarning hujjatlaridagi fotosuratlari  $\frac{3}{4}$  o‘lchamida yuz ko‘rinishi tasvirlangan holda taqdim etiladi, shundan kelib chiqib, identifikasiya o‘tkazish uchun shaxs yuzidagi belgilarni, fotosuratdagi tasvirni identifikasiya o‘tkazganligi to‘g‘risida xulosaga keladigan xususiyatlar jamlamasini ajratib olish zarur.

Nazoratchilar identifikasiya o‘tkazishning shunga o‘xshash xususiyatlarini diqqat bilan o‘rgangan va yodda saqlagan holda, yuqorida ko‘rsatilgandek, bir qator tadbirlarni, ya’ni fotosuratni yaxshilab o‘rganib va uni hujjat egasi bilan sifatli

solishtirish, xuddi o'sha ketma-ketlikda belgilar qanday tasvirlanganligini tekshirishlari kerak.

Nazoratchilar quyidagilarni yodda saqlashlari zarur: avvalo, yuz shakliga, peshana, burunning o'lchamlari baholanadi, undan so'ng qoshlar holati, og'iz, iyak shakli va quloq chanog'ining konturi baholanadi. Bularning hammasi vizual tarzda va bir zumda amalga oshiriladi. Chegaralarni kesib o'tish huquqini beruvchi hujjatlarni tekshirishda identifikatsiya o'tkazish jarayoni pasport nazorati tizimida eng muhim element hisoblanadi.

Nazoratchilarini tayyorlashda asosiy vazifalardan biri bu identifikatsiya o'tkazish qoidalarini va usullarini muntazam takomillashtirib borish hisoblanadi. Hozirgi kundagi zamонавиу texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlar identifikatsiyani odam ishtirokisiz amalga oshirayotgan bo'lishiga qaramay, nazoratchining identifikatsiyani o'tkazish bo'yicha malakasi ishni yaxshilanishiga imkon beradi.

Xulosa o'rnida shuni taqidlash lozimki:

identifikatsiya o'tkazish texnikasi o'zida insonning tashqi qiyofasini ma'lum zonalarga ajratish ko'nikmalarini mujassam etib, birin-ketin ularga e'tibor qaratib, ushbu zonalarning ahamiyatli belgilarini xotirada saqlash va undan so'ng, shunday ketma-ketlik bilan hujjatdagi fotosurat bilan solishtirish boshlanadi;

Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida o'tayotgan shaxsni dastlabki identifikatsiya o'tkazishning asosiy vazifasi yo'lovchilar oqimidan Davlat chegarasini buzuvchilarni, aynan – qalbaki va yasama hujjatlar bilan chegaradan o'tishga harakat qilayotgan shaxslarni aniqlash va qo'lga olish hisoblanadi;

qalbaki va yasama hujjatlarga ega yo'lovchilar asosan o'xshash belgilarga ega bo'ladi, nazoratchilar pasport nazoratini o'tkazishda bunga sinchkovlik bilan e'tibor berishlari lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. “Hujjatlarni tekshirish bo‘yicha”. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi DXX Chegara Qo‘sishlarining Bosh Shtabi Chegara Nazorat Boshqarmasi, 2014. - 351 b.
2. Samarov R. S. Harbiy atamalarning yangi izohli lug‘ati/ Alimov A.Yu.; Nasirov K.J.; Ikramov Sh. E.; Tursunov B.P.; Mo‘minov M.R.; /lug‘at/. T.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 384 b.;
3. Xikmatov R.P., “Chegara nazorati xizmatini tashkillashtirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi QK akademiyasi, 2020. - 235 b.
4. Xikmatov R.P., “Hujjatlarda qo‘llaniladigan zamonaviy maxsus himoyalar”. O‘quv qo‘llanma – T.: O‘zbekiston Respublikasi QK akademiyasi, 2020. 4-70 b.
5. Sobirov B.T., “Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlarida hujjatlarni tekshirish tartibi”. O‘quv qo‘llanma – T.: O‘zbekiston Respublikasi QK akademiyasi, 2018. - 56 b.